

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YUSUBAXMEDOV ABDURAUUF ABDURAXIM O‘G‘LI

**KARTOSHKA M – VIRUSINING MOLEKULAR DIAGNOSTIKASI VA
FILOGENETIK ANALIZI**

03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Yusubaxmedov Abdurauf Abduraxim o‘g‘li

Kartoshka M – virusining molekulyar diagnostikasi va filogenetik analizi.....3

Юсубахмедов Абдурауф Абдурахим угли

Молекулярная диагностика и филогенетический анализ М-вируса

картофеля21

Yusubakhmedov Abdurauf Abdurakhim ugli

Molecular diagnostics and phylogenetic analysis of potato virus M.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works45

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.09.2024.B.82.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

YUSUBAXMEDOV ABDURAUUF ABDURAXIM O'G'LI

**KARTOSHKHA M – VIRUSINING MOLEKULYAR DIAGNOSTIKASI VA
FILOGENETIK ANALIZI**

03.00.04 – Mikrobiologiya va virusologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/B805 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.chdpu.uz.ilmiy-kengash) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fayziyev Voxid Baxramovich
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sherimbetov Anvar Gulmirzayevich
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Xusanov Toxir Sunnatovich
biologiya fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/27.09.2024.B.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «4» 04 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpukengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 364 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «19» 03 da tarqatildi.
(2025 yil «19» 03 dagi 5 - raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.T. Jo'rayev**
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, b.f.d., professor

A.Q. Bo'ronov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.f.d., dotsent

H.A. Mo'minov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, b.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kartoshka o‘simligi oziq-ovqat sifatida eng ko‘p ekiladigan madaniy o‘simliklardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda, kartoshkaning yuqori hosildor va fitopatogen kasalliklarga chidamli navlarini yaratishda zamonaviy ilmiy usullardan foydalanishga alohida e‘tibor qaratish jahon hamjamiyati oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Hozirgi vaqtda kartoshka eksportini oshishi urug‘lik tugunaklaridagi yashirin viruslarni boshqa hududlarga tarqalib, areali kengayishiga olib kelmoqda. Bu esa molekular-genetik identifikatsiya qilish, bioinformatik tahlillar natijasida esa yangi izolyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va geneologiyasini aniqlash hamda virusning saqlanishi va sirkulyatsiyasi uchun muhim sanalgan yangi tabiiy rezervator o‘simliklarni aniqlash hamda virusga chidamli kartoshka navlarini yaratishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda kartoshka o‘simligini kasallantiruvchi fitopatogen viruslarni aniqlash, molekular-genetik identifikatsiya qilish ular keltiradigan zararini kamaytirish, qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha keng ko‘lamli izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada kartoshka M virusining biologiyasi, ekologiyasi va tarqalish yo‘llarini o‘rganish, tabiiy saqlovchilari va rezervatorlarini aniqlash, immunoxromotografik, immunoferment va PZR tahlillari yordamida viruslarni identifikatsiya qilish hamda filogenetik tahlil qilish, fitopatogen virusga qarshi kurashning ilmiy asoslangan choralari ishlab chiqish, kasallikka chidamlilik genlarini topish hamda ushbu genlar asosida navlarning chidamliligini oshirish, chidamli navlar yaratishga katta e‘tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda ko‘plab sohalar qatori qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanish, kartoshka yetishtirish, hosildorligi va kasallik qo‘zg‘atuvchi patogen mikroorganizmlarni aniqlash va ularni tarqalishini oldini olishga qaratilgan diagnostika usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish borasida muhim natijalarga erishildi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlariga moslashgan, kasalliklarga chidamli qishloq xo‘jalik ekinlarining yangi seleksion navlarini yaratish va joriy etish¹” kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda kartoshka M virusi oqsil qobig‘i geni fragmenti asosida molekular-genetik identifikatsiya qilish, bioinformatik tahlillar natijasida esa yangi izolyatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va filogenetik shajarasi tuzish hamda virusning saqlanishi va sirkulyatsiyasi uchun muhim sanalgan yangi tabiiy rezervator o‘simliklarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PF-6262-son “Respublikada o‘simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 maydagi PQ-4704-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

son “Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug‘chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 5 iyuldagi 361-son “Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini yanada rivojlantirish to‘g‘risidagi” qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kartoshka M virusining biologik xususiyatlari va diagnostikasi, virusning elektron mikroskopik tahlili, M virusining kasallik alomatlari, tarqalishi, genetik xilma-xilligi, molekulyar diagnostikasi bo‘yicha dunyo miqyosida ilmiy tadqiqotlarni xorijiy olimlar D.E. Schultz va D.M.Folsom (1923), M.B. McKay va T.P. Dykstra (1932), R.H. Bagnall (1956), B.Kassanis (1960), K. Xiruki (1973), R.S. Khurana (1980), I.D. Garg (1994), H.Plchova (2015), S.M. Khurana (2003), A.Kumar (2023) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH davlatlarida KMVga oid tadqiqotlar MDU akedemigi I.G. Atabekov rahbarligida S.K. Zavriev (1989), S.Yu. Morozov (2001), O. Karpova (2006), R.V.Gnutova (2011) va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lib, ular virusning tuzilishini, xususiyatlarini o‘rganish bilan birga, yangi shtammlarini aniqlash bo‘yicha bir qator tadqiqotlarni amalga oshirgan. Jumladan, MDH hududida R.V.Gnutova kartoshkani kasallantiruvchi S, Y, M, A, L kabi viruslarni toza holda ajratib olib, ularga spesifik antizardob tayyorlagan va immunologik usulda o‘rgangan.

Mamlakatimizda o‘simlik viruslarini aniqlash, xususiyatlarini o‘rganish, virusning o‘simlik ayrim morfofiziologik xususiyatlariga ta’siri, immunodiagnostikasi, genetik xilma-xilligi, molekulyar diagnostikasi ustida qator olimlar, jumladan prof. A.H. Vohobov rahbarligida Q.S.Davronov (1984), Z.N.Qodirova (1990), U.M. Jo‘rayeva (1993) va V.B.Fayziyevlar (2011) tomonidan; so‘ngi besh yillikda esa T.S. Xusanov (2019), V.B. Fayziyev (2020), B.J. Axmadaliyev (2023), T.X.Maxmudov (2023), Z.Sh.Sobirova (2024) va D.T.Jovliyeva (2024) kabi olimlar tomonidan olib borilgan. V.B. Fayziyev (2010) o‘zining tadqiqotlari natijasida kartoshkaning A va M-viruslari ham mamlakatimizda tarqalganligi hamda ularning tabiiy-rezervator o‘simliklari va tarqalish darajasini IFA va boshqa immunologik usullar yordamida birinchi marta aniqladi.

Ammo, mamlakatimizda KMVni biologik, ekologik xususiyatlari va molekulyar-genetik xarakteristikasi o‘rganilmagan bo‘lib, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar viruslarga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot Chirchiq davlat pedagogika universitetining «O‘zbekiston iqlim sharoitida tarqalgan

fitopatogen viruslarni ajratish, xususiyatlarini o'rganish va diagnostika qilishi» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlarining rejaları bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Toshkent viloyati ekologik sharoitidan KMVni ajratish, biologik xususiyatlarini aniqlash va molekulyar-genetik identifikatsiyalash hamda filogenetik shajarasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

KMVni real vaqtdagi-PZR usuli yordamida molekulyar diagnostika qilish va Toshkent viloyatining ayrim hududlarida tarqalish darajasini monitoring qilish;

KMVni ajratish va test-indikator o'simliklardagi alomatlarini o'rganish orqali biologik identifikatsiyalash;

virusni oqsil qobig'i geni asosida molekulyar-genetik identifikatsiyalash va filogenetik analiz qilish;

virus molekulyar diagnostikasi uchun praymer dizayn qilish (*TaqMan*) va real vaqtdagi-PZR usulida qo'llash hamda xorijiy analoglar bilan qiyosiy tahlil qilish;

KMVning tabiiy infeksiya manbaalarini hamda kartoshka nav va namunalarining virusga chidamlilik darajasini real vaqtdagi-PZR usuli yordamida aniqlash;

apikal meristema texnologiyasi asosida KVMdan xoli kartoshka ekuv materiallarini olish jarayonini real vaqtdagi-PZR usuli yordamida nazorat qilish va samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida laboratoriya sharoitida toza holda ajratib olingan, ba'zi biologik va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'rganilgan kartoshka M – virusidan foydalanildi.

Tadqiqotning predmeti KMVni xo'jayin o'simlikdan ajratib olish, virusning o'simlik ayrim morfofiziologik jarayonlariga ta'siri, peroksidaza fermentining infeksiyon jarayondagi dinamikasi, rezervator o'simliklarni aniqlash, molekulyar genetik usulda identifikatsiyalash va filogenetik shajarasini tuzish kabilar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy ishda real vaqtdagi va TT-PZR, sekvenslash, gel elektorforez, gelxromatografiya, fitoviruslarni ajratish va tozalash, indikator o'simliklarga yuqtirish usuli, spektrofotometriya kabi bir qator biotexnologik hamda virusologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Toshkent viloyati sharoitida KMV real vaqtdagi PZR usuli yordamida molekulyar diagnostika qilish asosida tarqalish darajasi aniqlangan;

KMVning oqsil qobig'i (CP) sinteziga javobgar bo'lgan genom uchastkasi nukleotidlar izchilligi asosida bir-biridan molekulyar-genetik jihatdan farqlanuvchi "PVM-UZ-AY1" va "PVM-UZ-AY2" izolyatlar sifatida aniqlangan hamda filogenetik tahlili natijasida NW-Prada1 (Russia), NW-Lomonosov11 (Rossiya) va NW-Laperla1 izolyatlari bilan 97-98% gomologiyaga ega ekanligi isbotlangan;

ajratilgan izolyatlarning oqsil qobig'i aminokislotalar tarkibini qiyosiy tahlil qilish natijasida PVM-Uz-AY1 izolyatda *serine* (S) aminokislotasi *isoleucine* (I) bilan va *arginine* (R) aminokislotasi esa *glycine* (G) bilan almashganligi, PVM-Uz-AY2 izolyatida esa *asparagin* (N) aminokislotasi *aspartic acid* (D) bilan, *tyrosine*

(Y) aminokislota *asparagin* (N) bilan va *arginine* (R) aminokislota ham *asparagin* (N) bilan almashgani isbotlangan;

virusning qora ituzum (*Solanum nigrum*), fizalis (*Physalis*), oq sho'ra (*Chenopodium album*) hamda oddiy jag'-jag' (*Capsella bursa-pastoris* L.), burchoq (*Lathyrus pratensis*) kabi mamlakatimiz iqlim sharoiti uchun yangi bo'lgan tabiiy rezervator o'simliklari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

KMV molekulyar diagnostikasi uchun praymerlar dizayn qilindi va virus molekulyar diagnostikasi uchun "real vaqtdagi-PZR" test sistemasi ishlab chiqildi, uning Sintol (Rossiya) kompaniyasidan olingan xorijiy analoglar bilan qiyosiy tahlili esa sezgirlik jihatdan qolishmasligini va 2,2 baravar arzon ekanligi baholangan;

real vaqtdagi-PZR test to'plami kartoshka tugunagidagi yashirin virus infeksiyasini va *Mastak*, *Suravink*, *Zarochka*, *Palast*, *Liliya*, *Gorantiya*, *Universal* kabi immun navlarni aniqlashda qo'llanilgan hamda yuqori sezgirlikka ega ekanligi isbotlangan;

in vitro usuli yordamida KMVDan xoli bo'lgan virussiz ekuv materiali olish bosqichlarida qo'llanilgan real vaqtdagi-PZR test sistemasi virussiz tunganak olish uchun asos bo'lib xizmat qilgan va tunganaklarning ikkilamchi infeksiya bilan zararlanishining oldini olishda samarali ekanligini isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlillar zamonaviy virusologik, biotexnologik, molekulyar genetik usullardan foydalangan holda o'tkazilganligi, ilmiy natijalar "Statistica 6.0" dasturidan foydalangan holda zamonaviy statistik tahlillar yordamida tahlil qilingani, shuningdek, SnapGene, MEGA11 dasturlari yordamida bioinformatik tahlil, GenBank NCBI ma'lumotlar bazasiga o'rganilgan virus izolyatining nukleotidlar ketma-ketligini joylashtirilganligi, natijalarni respublika va xalqaro konferensiyalarda muhokama qilinganligi va tadqiqot natijalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda nashr etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekistonda tarqalgan KMV oqsil qobig'i genining fragmenti asosida molekular-genetik identifikatsiya qilinganligi, bioinformatik tahlillar natijasida esa yangi izolyatlarning ro'yxatdan o'tkazilganligi va filogenetik shajarasi tuzilganligi hamda Toshkent viloyati iqlim sharoitida virusning saqlanishi va sirkulyatsiyasi uchun muhim sanalgan yangi tabiiy rezervator o'simliklarining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati KMVni diagnostikasi uchun ishlab chiqilgan real vaqtdagi-PZR test to'plami yordamida kartoshkaning 35 dan ortiq nav va klonlaridan KMV ga immun, chidamli va chidamsizlarini baholashda hamda virusning respublikamiz iqlim sharoitida tarqalgan tabiiy infeksiya manbalarini aniqlashda qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kartoshka (*Solanum tuberosum* L.) o'simligini kasallantiruvchi KMVning molekulyar diagnostikasi va filogenetik analizi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

M - virusining respublikamizda tarqalgan izolyati “Fitopatogen va boshqa mikroorganizmlar noyob ilmiy obyekti kolleksiyasi” genofondiga topshirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 2024-yil 15-mart 4/1255-314-son ma’lumotnomasi). Natijada, fitopatogen mikroorganizmlar shtammlari kolleksiya genofondini boyitish, virus turlari xilma-xilliklari elektron bazasi axborot tahlil tizimini shakillantirish imkonini bergan;

Toshkent viloyati kartoshka ekin dalalaridan kuzatilgan bir qator kartoshka kasallik alomatlaridan KMV PZR usuli yordamida tahlil o‘tkazilib, virusning “PVM-UZ-AY1” va “PVM-UZ-AY2” izolyati aniqlangan hamda ushbu izolyatlar xalqaro GeneBank - NCBI bazasiga PP235793.1 va PQ243305 ID raqam bilan joylashtirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 12-avgustdagi 05/06/-02-651-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarida foydalanish va filogenetik shajarasini yaratish jarayonida foydalanish imkonini bergan;

“Kartoshka M-virusi molekulyar diagnostikasi uchun mualliflik praymeri dizayn qilingan va real vaqtdagi-PZR test sistemasi ishlab chiqilgan va ushbu test toplami “Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot institutida” kartoshka kolleksiyasi urug‘lik materiallarini saralash amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2024-yil 12-avgustdagi 05/06/-02-651-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, kartoshka tuganaklari va ekin maydonlarida virus diagnostikasini amalga oshirish, virussiz kartoshka tuganaklari olishda hamda tuganak tarkibida yashirin holda saqlanayotgan KMVni erta diagnostika qilish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish, shulardan 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiya vaziligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 5 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosalar va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, jami 111 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari asoslangan hamda tadqiqotning obyekti va predmetlari tavsiflab berilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, natijalarning nashr etilganligi va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Kartoshka M-virusining biologiyasi, ekologiyasi va diagnostikasiga oid adabiyotlar sharhi**” deb nomlangan birinchi bobida *Betaflexiviridae* oilasiga mansub viruslar tavsifi, kartoshka M - virusining

biologiyasi, ekologiyasi va molekulyar-genetik xarakteristikasi, virusning o‘simlikdagi fiziologik va biokimyoviy xususiyatlariga ta’siri va KMVga qarshi kurashish usullari haqidagi xorijiy hamda mahalliy ilmiy adabiyotlardan olingan ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlar uchun foydalanilgan materiallar va uslublar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotni bajarish uchun foydalanilgan materiallar hamda real vaqtdagi TT-PZR yordamida KMVni aniqlash, ajratish va biologik tozalash va toza preparatini olish, molekulyar-genetik identifikatsiya qilish, virusning o‘simlik ayrim morfofiziologik xususiyatlariga ta’sirini o‘rganish kabi usullarining tavsifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“KMVning molekulyar diagnostikasi va filogenetik tahlili bo‘yicha olingan natijalar va ularning tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida KMVni real vaqtdagi TT-PZR usuli yordamida aniqlash, Toshkent viloyatining ayrim hududlarida tarqalish darajasini monitoring qilish, indikator o‘simliklarga yuqtirish va kasallik alomatlarni o‘rganish, ba’zi morfofiziologik xususiyatlari va mahsuldorligiga ta’sirini aniqlash kabi olib borilgan tadqiqot natijalar keltirilgan.

Virusologik tadqiqotlarda vizual monitoring ishlari muhim hisoblanganligi bois, bobning birinchi bo‘limida kartoshka dalalarida tarqalgan virusli kasallik belgilari ichidan KMVga xos bo‘lgan alomatlarni aniqlash, molekulyar-genetik usul yordamida diagnostika qilish hamda tarqalish darajasi monitoring qilindi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan kuzatishlar natijasida, kartoshka ekin maydonlarida virusli kasalliklarga xos bo‘lgan barg plastinkasining to‘lqinsimon jingalaklanishi, bujmayishi yoki burishishi, xol-xol mozaikasi, tomirlararo xloroz, mozaikali dog‘lar va o‘simlik o‘sishining sekinlashishi kabi alomatlar mavjud barg namunalari olindi (1-rasm) va real vaqtdagi-PZR usuli yordamida molekulyar identifikatsiya qilindi.

Tahlillar natijasiga ko‘ra tomirlararo xloroz, barg plastinkasining yuqoriga qayiqsimon buralishi yoki burishish, to‘lqinsimon jingalaklanish, mozaikali dog‘ alomatlari aynan KMVga xos ekanligi real vaqtdagi TT-PZR usuli yordamida aniqlandi.

Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqot virusning tabiiy sharoitda tarqalish darajasini aniqlash bo‘lib, bunda Toshkent viloyatining kartoshka keng



1-rasm. Kartoshka o‘simligida uchraydigan virusga xos bo‘lgan kasallik alomatlari. Rasmdagi: 1 - barglarning buralishi va mozaika; 2-xol-xol mjaika; 3-barglarning qisman buralishi; 4-barglarning burishishi; 5,6-KMV va KLV birgalikdagi simptomlar.

ekiladigan hududlari hisoblangan va avvalgi ushbu yo‘nalishda o‘tkazilgan tadqiqotlar (Fayziyev, 2011) bilan solishtirish uchun Bo‘stonliq, Toshkent, Qibray va Zangiota tumanlarida monitoring ishlari olib borildi va olingan natijalar jadvalda keltirildi (1-jadval).

1-jadval

Toshkent viloyati ayrim tumanlarida virus tarqalishini PZR usuli yordamida aniqlash

№	Namuna olingan F/X nomi	Tuman	Kartoshka navlari	Yer maydoni, ga	kasallanish darajasi, %
1.	Taraqqiyot	Qibray	Golland	2,0	91,7±0,29
2.	Yuksalish	Qibray	Pikasso	1,0	78,4±0,16
3.	Yusubaxmedov Jomiy Fayz	Qibray	Gala	1,0	88,4±0,13
4.	Mirmuxsin	Qibray	Umid	2,0	94,1±0,21
5.	Baurjan	Bo‘stonliq	Gala (Rossiya)	1,5	78,14±0,16
6.	Tuxtasin Baraka	Bo‘stonliq	Arena	2,0	89,97±0,19
7.	Keles Agro	Toshkent	Razara	0,5	84,3±0,11
8.	Farida aya	Zangiota	Arizona	0,5	88,3±0,18
9.	Shodmonov Toxir	Zangiota	Zarzara	1,0	79,5±0,17

Izoh: P<0,05 – nazoratga nisbatan ishonchli; n=3.

Monitoring olib borilgan kartoshka ekilgan dala maydonlarda PZR tahlillar natijasiga ko‘ra KMVning tarqalish darajasi aniqlandi. Tadqiqot natijasida tekshirilgan ekin maydonlarining barchasida KMV keng tarqalganligi ma’lum bo‘ldi. Kompleks viruslar bilan kasallanish “Mirmuxsin” F/X 94%, “Taraqqiyot” F/X 92%, “Tuxtasin Baraka” F/X 90%, “Yusubaxmedov Jomiy Fayz” F/X va “Keles Agro” F/X 88%, “Shodmonov Toxir” F/X 79%, “Yuksalish” F/X va “Baurjan” F/X 78% ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Ushbu yo‘nalishda tadqiqot olib borgan mualliflarning (Fayziyev va boshq., 2010) IFA usuli yordamida Toshkent viloyatida KMVni tarqalish darajasini aniqlash natijasida Qibray tumanida 48%, Toshkent tumanida 5%, Zangiota tumanida 35% va Parkent tumanida 34% virus bilan zararlanish aniqlangan. So‘ngi yillarda (Yusubaxmedov, 2023) ushbu yo‘nalishda olib borilgan PZR tekshirishlari natijasida Toshkent viloyatining tumanlarida, xususan, Qibray tumanida 88%, qolgan Zangiota, Bo‘stonliq va Toshkent tumanlarida 84% KMV bilan zararlanish holati aniqlandi. Qiyosiy tahlillar virus tarqalishining yillar davomida Qibray tumanida 40%, Zangiota tumanida 49%, Toshkent tumanida 79% ga oshganligi aniqlandi.


KMVni ajratish va indikator o‘simliklardagi kasallik alomatlarini o‘rganish orqali biologik identifikatsiyalash. KMVning toza preparatini olishning sharti, mazkur virusni indikator o‘simliklar yordamida boshqa viruslar, bakteriyalar va zamburug‘lar kabi mikroskopik organizmlardan ajratib olishdan boshlanadi.

Bunda *Fabaceae* oilasi vakili bo‘lgan *Vigna sinensis* differentsiator, *Solanaceae* oilasiga vakili *Datura stramonium* KMV ni to‘plovchi o‘simlik sifatida ishlatish mumkinligi aniqlandi va virusning toza preparatini olish uchun foydalanildi.

Virusni dastlab biologik tozalash, keyin fizik-kimyoviy usul bilan tozalash davom ettirildi. Bunda virusning qisman tozalangan preparati olindi. Gomogen virus preparatini olish uchun esa gelfiltratsiya usulidan foydalanildi. Sefadeks-G200 geli

solingan gelxromotografik kolonkadagi bufer orasiga konsentrlangan KMVning qisman tozalangan preparatidan solinib, namuna alohida fraksiyalarga ajratildi.

Olingan fraksiyalarning UB-nurini yutishiga qarab tozalik darajasi va tozalangan virus miqdori «UV-1700» markali spektrofotometrda aniqlandi (2-rasm). Spektrofotometrik tahlillar shuni ko'rsatdiki, virusning dastlabki filtrlanishi 6 fraksiyadan boshlanib, 8 - fraksiyada eng maksimal darajaga, 11 - fraksiyada minimal darajaga yetdi va 12 - fraksiyadan boshlab hujayra komponentlari chiqa boshlashi *Vigna sinensis* indikator o'simligida paydo bo'lgan alomatlari asosida aniqlandi. Preparatni real vaqtdagi-PZR tekshiruvini ham virusning gelxromotografik kolonkadan 6-10 fraksiyalarda ajralib chiqqanligini, 8 - fraksiyada esa eng maksimal darajada ajralganligi tasdiqlandi (2-jadval).



2-rasm. KMV toza virus preparatining UB nurini yutishi ko'rsatkichi

2- jadval

KMV preparatining gelfiltratsiya usulida ajralgan fraksiyasiylarining real vaqtdagi-PZR tahlili

Katakcha nomi	Namuna nomi	Namuna turi	Fluoresent kanal	Gen	Ct*	PZR xulosasi
A1	2-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	Ct yuq	Manfiy
A2	3-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	Ct yuq	Manfiy
A3	4-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	Ct yuq	Manfiy
A4	6-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	30,02	Musbat
A5	8-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	26,37	Musbat
A6	10-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	37,22	Musbat
A7	14-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	Ct yuq	Manfiy
A8	16-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	Ct yuq	Manfiy
B1	19-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	Ct yuq	Manfiy
B2	22-fraksiya	Fraksiya suyuqligi	FAM	CP-gen	Ct yuq	Manfiy
B3	Musbat nazorat.	K+	FAM	CP-gen	27,02	Musbat
B4	Manfiy nazorat.	K-	FAM	CP-gen	Ct yuq	Manfiy

Izoh: *Ct (cycle threshold) - kDNKning nusxalarini yaratish tsikllari soni. Tsikl ko'rsatgan ko'rsatgichdan boshlab sinov namunasi ijobiy hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot natijasida quyidagicha xulosa qilish mumkin, fraksiyalarning yuqumliligi *Datura stramonium*, *Vigna sinensis*, *Phisalis* kabi test-indikator o'simliklariga mexanik inokulyatsiya qilish orqali aniqlandi va 6-10 fraksiyalar yuqori yuqumlilikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi va ushbu fraksiyalarning real


vaqtdagi-PZR tahlili hamda test-indikatorlarga mexanik inokulyatsiya qilish orqali biologik identifikatsiya qilish ushbu preparatning KMVga xos ekanligini tasdiqladi.

KMVni oqsil qobig‘i geni asosida molekulyar identifikatsiyalash va filogenetik analiz qilish.

KMVning mamlakatimizda tarqalgan izolyatini oqsil qobig‘iga (CP) javobgar bo‘lgan geni asosida molekulyar identifikatsiya va filogenetik analiz qilish uchun, Xu va boshq. (2010) tomonidan ishlab chiqilgan maxsus praymerlarni (PVM-R-CTTCATTTGTTATTCGACTT va PVM-F-ATGGGAGATTCAACRAAGAA)


“Integrated DNA Technologies” (Belgiya) kompaniyasi tomonidan sintez qilindi va kartoshka ekin dalalarida KMVning kasallik belgilari bo‘lgan kartoshkaning Umid, Gala, Pikas kabi navlardan namunalarni olib, TT-PZR usuli yordamida molekulyar identifikatsiya qilindi Virusni molekulyar genetik identifikatsiyasi maxsus praymerlar ishtirokida TT-RZR usuli yordamida agarozda gelida o‘tkazildi (3-rasm).

Sekvens reaksiyasi mahsulotlarini nukleotidlar ketma-ketligini o‘qitish “Applied Biosystems 3500” DNK-sekvenatorida amalga oshirildi.



4-rasm. KMV ning filogenetik shajarasi

bazasiga “Potato virus M, isolate PVM-Uz-AY1” nomi va PP235793.1 ID raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazildi. Kartoshkadan ajratib olingan ikkinchi izolyat esa CP geni nukleotidlar ketma-ketligi (807 j.n.) ham Xalqaro gen bank – NCBI ma‘lumotlar bazasiga “Potato virus M, isolate PVM-Uz-AY2” nomi va PQ243305 ID raqam bilan joylashtirildi.



3-rasm. Toshkent viloyati kartoshka barglari namunalaridan aniqlangan KMV oqsil qobig‘i (CP) geni yordamidagi TT-PZR tahlili.

Elektroforez 2%-li agarozda gelida amalga oshirilgan. Rasmdagi: 1-kontrol (virussiz kartoshka), TT-PZR analiz uchun namunalar Umid (2,3), Gala (4,5), Pikas (6-8) navlaridan olingan. M - O‘GeneRuler 1 kb DNA ladder (Fermentas). Praymerlar PVM1/PVM2 TT-PZR sharoiti Xu va boshq.da (2010) keltirilgandek amalga oshirildi.

CP geni nukleotidlar ketma-ketligining bir qismi aniqlandi va BLAST online dasturi yordamida Xalqaro GenBank-NCBI

(<https://www.ncbi.nlm.nih.gov>) ma‘lumotlar bazasiga kiritilgan KMV izolyatlari nukleotidlar ketma-ketliklari bilan taqqoslandi. Tajribalar davomida kartoshka o‘simligidan ajratilgan KMVning ikkita izolyatlari aniqlandi.


Virusning aniqlangan ilk izolyati CP geni nukleotidlar ketma-ketligi (286 j.n.) Xalqaro gen bank – NCBI ma‘lumotlar

Ushbu aniqlangan mahalliy izolyatlar – virusning filogenetik shajarasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Aniqlangan izolyat nukleotid ketma-ketligi asosida NCBI bazasida mavjud boshqa izolyatlar bilan solishtirilib, bioinformatik tahlil qilindi va MEGA11 dasturi yordamida uning filogenetik shajarasi yaratildi (4-rasm).

Virusni bioinformatik tahlil qilish hamda filogenetik shajarasini yaratish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida gomologiyaga ega bo‘lgan izolyatlar to‘rtta alohida-alohida filogenetik klaster hosil qilib joylashgaligi, PVM-Uz-AY1 va PVM-Uz-AY2 izolyati esa uchinchi klasterga mansubligi va unda alohida filogenetik shoxda joylashganligi aniqlandi.

Filogenetik shajaradan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimiz iqlim sharoitida aniqlangan KMVning izolyatlari NW - Prada1 (Rossia), NW-Lomonosov11 va NW-Laperla1 izolyatlari bilan 97-98% gomolog ekanligi ularning ushbu izolyatlardan kelib chiqqan degan xulosa qilishga, qolgan T40 (Slovakia) va T50 (Slovakia) izolyatlari bilan (CP geni) 95%, Mir-12 (India) va FE-Gala1 (Rossia) kabi izolyatlar bilan 94-97%, YN-2-6 coat (China) izolyati bilan 95% ga gomologiyaga ega ekanligi mamlakatimizda aniqlangan izolyatlarning ushbu izolyatlar bilan uzoq kelib chiqishda bitta ajdod virusdan kelib chiqqanligini ko‘rsatadi (3-jadval).

Tadqiqotlarning keyingi bosqichida mamlakatimizdan ajratilgan “PVM-Uz-AY1” izolyati oqsil qobig‘ining (CP) aminokislota tarkibi o‘rganildi (5-rasm).



5-rasm. KMVning PVM-Uz-AY1 izolyati aminokislota tarkibining qiyosiy tahlili

PVM-Uz-AY1 izolyatining aminokislotalar ketma-ketligi <https://www.ebi.ac.uk> saytda boshqa NCBI ma’lumotlar bazasidagi Mir-12 India (AHX99478.1), NW-Prada1 Rossia (BBP49716.1), NW-Lomonosovskiy11 Rossia (BBP49717.1) kabi izolyatlar bilan taqqoslandi. Solishtirma jadvaldan ko‘rinib turibdiki PVM-Uz-AY1 izolyatda *serine* (S) aminokislota *isoleucine* (I) bilan almashgani va *arginine* (R) aminokislota esa *glycine* (G) bilan almashganligi ma’lum bo‘ldi.


KMVni mintaqamizda tarqalgan PVM-Uz-AY2 izolyatining ham oqsil qobig‘i aminokislota tarkibi qiyosiy tahlil qilinganda esa PVM-Uz-AY2 izolyatida *asparagin* (N) aminokislota *aspartic acid* (D) bilan, *tyrosine* (Y) aminokislota *asparagin* (N) bilan va *arginine* (R) aminokislota ham *asparagin* (N) bilan almashgani aniqlandi (6-rasm).



6-rasm. KMVning PVM-Uz-AY2 izolyati aminokislota tarkibining qiyosiy tahlili

Ushbu tadqiqot natijasiga ko‘ra quyidagicha xulosa qilish mumkin, mamlakatimizda ajratilgan izolyat oqsil qobig‘i aminokislota tarkibi jihatdan ko‘pgina izolyatlar bilan yaqin, ammo bir xil emasligi, turli abiotik va biotik omillar ta’siri natijasida KMV ning o‘zgaruvchanlikka uchraganligidan dalolat beradi.

KMV molekulyar diagnostikasi uchun praymer dizayin qilish (*TaqMan*) va real vaqtdagi-PZR usulida qo‘llash hamda xorijiy analoglar bilan qiyosiy tahlil qilish. Praymer NCBI ma’lumotlar bazasiga kiritilgan KMV genomlari ketma-ketligi asosida real vaqtdagi-PZR usulida qo‘llash uchun ishlab chiqildi. Bu praymerlarning KMVning gen bankdagi mavjud izolyatlarini aniqlay olish imkoniyati NCBI ma’lumotlar ba’zasi tomonidan taqdim etilgan Basic Local Alignment Search Tool dasturi yordamida tekshirildi. Ishlab chiqilgan praymerlar: *Forward*: PVM_F5`-CTGAGCACGTGCARCAGGT-3` *Reverse*: PVM_R5`-TTCTCAACGTAATCAAAGCAGTC-3` flyurosentli zond bilan belgilangan *probe* praymeri Cy5-GCAAGCAGCTCCGTA TTCCTGGATC-BHQ-2 KMV ning CP geni nukleotidlar ketma-ketligiga mos qilib tanlangan. Replikaza sinteziga javobgar genning bir qismini ifodalovchi PZR mahsuloti 298 juft nukleotid (j.n.) ketma-ketligiga teng. O‘tkazilgan tajribada standart (an’anaviy) va real vaqtdagi TT-PZR usullardan bir xil natijalar olindi (7-rasm).



7-rasm. KMVni real vaqtdagi PZR va standart TT-PZR usuli yordamida diagnostika taqqoslama xulosalari. Rasmdagi: 1-“Agave” navi; 2 - “Gala” navi; 3 - “Zarzara” navi; 4 - “Pikas” navi; 5 - sog‘lom kartoshka namunasi; M-1000 bp DNA ladder Plus.

Real vaqtdagi PZRning avzallik tarafi: juda ko‘p namunalarni qisqa vaqtda tekshirish imkoni mavjud, nukleyin kislotani bo‘yash uchun foydalaniladigan etidium bromid kabi inson salomatligiga xavfli kanserogen moddalardan foydalanilmasligi,

laboratoriyani nukleyin kislotalar (amplikonlar) bilan ifloslantirish (kontaminatsiya) xavfi darajasi juda kam va eng muhimi sezgirlik darajasi yuqori, bunda tajriba natijasini olishda inson faktori ishtirok etmaydi.

Ishlab chiqilgan PZR tashxis test to'plamini boshqa tadqiqotlarda qo'llanilayotgan muqobil PZR to'plam bilan taqqoslama tajriba o'tkazildi (4-jadval).

4-jadval

KMV diagnostikasi uchun ishlab chiqilgan PZR tashxis test to'plamining muqobil varianti bilan sezgirligini aniqlash bo'yicha qiyosiy tahlili

No	Nav nomi	“Molekulyar biologiya va bioinformatika” ilmiy-tadqiqotlari laboratoriyasida ishlab chiqilgan “KMV real vaqtdagi-PZR” tashxis test to'plami	SINTOL kompaniyasining “Kartoshka M virusini real vaqtdagi-PZR” tashxis test to'plami
		PZR natijasi (Ct)*	PZR natijasi (Ct)
1	Karona	32,95	28,64
2	Bog'izag'on	31,42	34,22
3	Pskom	15,56	24,81
4	Quvonch	26,73	31,84
5	Toshkent ertagi	14,03	25,31
6	O'zbekiston qizili	24,71	28,67
7	Aqrob	16,69	22,74
8	Umid	29,49	24,63
9	Mastak	-	-
10	Yuliya	33,94	27,84
11	Karlan	33,48	28,64
12	Manifes	21,26	25,44
13	Uladar	27,66	25,28
14	Suravink	-	-
15	Zarochka	-	-
16	Palast	-	-
17	Liliya	-	-
18	Gorantiya	-	-
19	Universal	-	-
20	Golden	-	-
21	Ariran	-	-
22	Pitek	35,08	29,54
23	Kavkaz	34,88	33,34
24	Naxitta	35,18	29,59
25	Zirve	35,16	31,45

Izoh: *Ct (cycle threshold) - kDNKning nusxalarini yaratish tsikllari soni. Tsikl ko'rsatgan ko'rsatgichdan boshlab sinov namunasi ijobiy hisoblanadi.

Jadvalda keltirilgan natijaga ko'ra KMV diagnostikasi uchun ishlab chiqilgan va ushbu diagnostikumga muqobili bo'lgan SINTOL (Rossiya) kompaniyasining “Kartoshka M virusini real vaqtdagi-PZR tashxis test to'plami” bilan solishtirish natijasida ikkala testda ham PZR natijasi (Ct) bir-biriga juda yaqin chiqqanligi, O'zbekistonda ishlab chiqilgan PZR test to'plamining KMV diagnostikasi uchun

qo'llash, virusni erta aniqlagan holda virus epifitotiysini oldini olishda muhim amaliy ahamiyatga egaligini e'tirof etish lozim.

Ushbu yo'nalishda aniqlashtirilishi zarur bo'lgan ishlardan biri bu - ishlab chiqilgan mahalliy PZR test to'plamining iqtisodiy samaradorligini aniqlash bo'lib, bu test to'plamni ishlab chiqish uchun sarflangan barcha mehnat haqi hamda boshqa sarflanadigan reagentlar jamlanmasi bilan aniqlanadi.

